

HARBIY PEDAGOG KASBIY FAOLIYATIDA YUKSAK PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNI TA'MINLOVCHI OMILLAR

Abbasov Alibek Abdullayevich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar
Akademiyasining tinglovchisi

Annotation. *This article contains thoughts and opinions about the professional activities of military teachers, its requirements and factors that ensure their formation of pedagogical skills.*

Key words: *military teacher, officer, abilities, professional activity, skill, spirituality, didactics, qualifications.*

Аннотация. *В данной статье собраны мысли и мнения о профессиональной деятельности военных педагогов, ее требованиях и факторах, обеспечивающих их формирование педагогического мастерства.*

Ключевые слова: *военный педагог, офицер, способности, профессиональная деятельность, мастерство, духовность, дидактика, квалификация.*

Annotasiya. *Ushbu maqolada harbiy pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati, ularga qo'yiladigan talablar hamda pedagogik mahoratni shakllantirishda ularni ta'minlovchi omillar to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *harbiy pedagog, ofitser, qobiliyat, kasbiy faoliyat, mahorat, ma'naviyat, didaktika, malaka.*

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Shaxsan men jonkuyar olimlarimiz buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'analarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotimizning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratishlariga ishonaman.

Agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo'limizdan keladi. Biz ma'rifat borasida, ta'bir joiz bo'lsa, "iligi to'q" xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor. "Eng



katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir²⁸”.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-Qurulli
Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni **Sh.M. Mirziyoev***

Mamlakatni har tomonlama yuksaltirish, rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning eng muhim shartlaridan biri bu xalqning ma‘naviy, ma‘rifiy va madaniy saviyasini oshirish hisoblanadi. Ma‘naviyat, ma‘rifat va madaniyat tushunchalarining har biri alohida chuqur mazmun-mohiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan, ular bevosita bog‘liq bo‘lib, yagona uzilmas zanjirni tashkil etadi. Bir-birini to‘ldirgan holda yuksaltirib boradi. Shu nazardan yondoshganda, qo‘llanmalarda madaniyat ikki guruhga: moddiy va ma‘naviy madaniyatga bo‘lingan hamda ularga quyidagicha ta‘rif berilgan.

Moddiy madaniyat deganda mehnat qurollari, transport, aloqa vositalari, uy-joylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar, har xil buyumlar, xullas, insoniyatning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha narsalar hamda kishilarning ishlab chiqarish tajribalari, ko‘nikmalari va mahoratlaridir. Ma‘naviy madaniyat esa kishilarning bilimlari, tajribalari, urf-odatlar, xulq-atvorlari, fan, adabiyot, san‘at, falsafa, axloq, huquq, ilmiy dunyoqarash, diniy e‘tiqodlari, ta‘lim-tarbiya, matbuot, xullas, insoniyatning ma‘naviy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha ma‘naviy boyliklardir²⁹.

Ma‘naviy madaniyat insonning ma‘naviy xususiyat va xislatlari, jamiyatning madaniy darajasini aks ettiruvchi tushuncha. Ma‘naviy madaniyat insonning fan, maorif, ma‘rifat, falsafa, san‘at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat va hokazolar yig‘indisidan tashkil topadigan tashqi va ichki ma‘naviyati hurriyatining olamidir. Demak, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatining shunchaki aks etishi emas, balki uning (shaxsning) ijtimoiy sifatlari, faoliyati va xulqi mazmunida, shuningdek ehtiyojlarida namoyon bo‘luvchi rivojlanganlik darajasidir. Ma‘naviy madaniyat inson faoliyati soxasi bo‘lib, u jamiyat ma‘naviy hayotining turli tomonlarini, shuningdek ma‘lum bir madaniy va tarixiy birlikka yoki umuman insonga hos bo‘lgan bilimlar va dunyo qarash g‘oyalari tizimini qamrab oladi. Shu nuqtaiy nazardan fikrimizni o‘zbek faylasuf olimlari qarashlari bilan qiyoslashga harakat qilamiz. M.Abduraxmonov va H.Raxmonov fikricha ma‘naviy madaniyat ta‘lim va fan

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-oktabr. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>.

²⁹ <https://milliycha.uz/moddiy-va-manaviy-madaniyat/>



sohasiga oid ilmiy faoliyatni, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada ma'naviy madaniyat insonning layoqati va faoliyatining buyumlarda moddiylik shaklida, insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar (ilim, sa'nat, huquq, axloq qoidalari) shaklida mavjud bo'ldi³⁰.

Yuqoridagilarni inobatga oladigan bo'lsak, bizda keyingi tushuncha ya'ni pedagogik madaniyat tushunchasi paydo bo'ladi. Xo'sh pedagogik madaniyat nima? **Pedagogik madaniyat** pedagogik faoliyat ta'siri ostida yuzaga keladi va bu faoliyatni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik madaniyat shaxsning pedagog sifatida qay darajaga erishganligida namoyon bo'ladi.

Psixologik jihatdan pedagogik madaniyat pedagogik tushunchalar va mahorat, pedagogik axloq va kasbiy-pedagogik sifatlar, pedagogning ish uslubi va o'z faoliyatiga munosabati yig'indisidir. Pedagogik madaniyatning namoyon bo'lishi va uning qadriyatga, turmush tarziga aylanishi uchun insondan yuqori kasbiy salohiyat, ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy barkamollik talab qilinadi³¹.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadlaridan biri – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Harbiy pedagogik madaniyatini mukammal harbiy bilimlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Qurolli Kuchlar kundalik faoliyatida, harbiy kadrlarni tarbiyalash va o'qitish qonuniyatlarini o'rganish hamda harbiy xizmatchilarni harbiy xizmat faoliyatiga tayyorlashda harbiy pedagogika fani alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va shu mustaqillikni, mamlakatimiz xalqining bunyodkorlik mehnatini va tinch hayotini, osoyishtaligini himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan harbiy islohotlarning talablaridan biri Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan harbiy kadrlarni tayyorlashdir. Bu ishni amalga oshirishda harbiy-pedagogik kadrlardan nafaqat o'z mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, balki keng dunyoqarashga, turli fan yo'nalishlaridan umumiy

³⁰ Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik – Toshkent: 2008. – 37 b.

³¹ V.Karimova. Pedagogika.Psixologiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2008 yil.



tushunchaga, yuksak psixologik-pedagogik tafakkurga va pedagogik mahoratga ega bo'lish talab etiladi³².

Har sohadagidek, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Harbiy kadrlarga qo'yiladigan talablar esa kun sayin oshib bormoqda. Hozirgi kunda harbiy kadrlar yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan, dunyoqarashli keng, madaniyati yuksak va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o'z bo'ysunuvchilariga ta'lim va tarbiya bera oladigan qobiliyatli va mahoratli pedagog bo'lishi davr talabidir.

Masalan, harbiy kadrlarning (ofitserlarning) kundalik faoliyatida bo'ysunuvchilarga rahbarlik qilish, ularni tarbiyalash va ta'lim berish asosiy o'rin egallaydi. Bunda ofitser jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Aynan shu maqsadda har bir ofitserdan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi. Pedagogik mahorat nima? *«Pedagogik mahorat - izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigari jarayondir»³³.*

Pedagog o'z fanini chuqur biladigan, fan va san'atning tegishli tarmoqlari bilan yaxshi tanish bo'lgan, umumiy va soha psixologiyasini amalda yaxshi tushunadigan, ta'lim va tarbiya metodikasini yaxshi egallagan o'z ishining ustasi, yuksak madaniyatli mutaxassisdir.

Demak, pedagogik mahorat – ta'lim berayotgan shaxsning murabbiylik va ustozlik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sir-asrorlarini chuqur egallaganligi, uning insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati. Bundan ko'zlangan **maqsad** mashg'ulotning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat. Shuningdek, u ta'lim beruvchining kasbiy – ijodiy faoliyatidir.

Pedagogik mahoratli pedagogda kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;

o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;

mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va kerak bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;

³² Egamberdieva, T., & Alimjonova, M. (2020). Pedagogical necessity of development of intercultural communication in students in the conditions globalisation of education. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 277-283.

³³ R. Mavlonova, D. Abduraximova. "Pedagogik mahorat". Toshkent 2009. 25-bet.



dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;

darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Harbiy pedagogik mahorati – uning psixologik-pedagogik tafakkuri, o'z xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimi, malakasi va ko'nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatlari birligi bo'lib, u pedagog shaxsining yuksak taraqqiy etgan g'oyaviy, kasbiy, axloqiy, jangovar, tashkilotchilik va harbiy pedagogga xos xislatlari bilan uyg'unlikda ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega. U harbiy-pedagogik faoliyat tarkibi va mazmuni bilan belgilanadi. Tarkibiy jihatdan pedagogik mahorat o'qituvchi (uslubchi) mahorati va tarbiyachi mahoratiga ajratiladi. Hozirgi zamon ofitseri zamonaviy harbiy texnika va qurollarni yaxshi bilishi va samarali qo'llay olishi, umumharbiy nizomlar talablariga kundalik xizmat jarayonida amal qilishi va boshqalardan talab qilishi lozim.

Yuqori madaniyatli harbiy pedagoglar pedagogik faoliyatga moyilligi, qiziqishi, o'z kasbiga muhabbati, oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga nisbatan o'ta mas'uliyatli munasabati bilan ajralib turadi. Faqat shundagina harbiy kadr (ofitser) hamkasblari, boshliqlari va bo'ysunuvchilari oldida hurmatga sazovor bo'la oladi, o'z mehnatidan qoniqish hosil qiladi, yangilikka, yangi natijalarga intilib yashaydi.

Pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu yuksak axloqiylik bo'lib, uning mohiyati va asosiy mazmuni harbiy xizmatchi (ofitser) ning pedagogik faoliyati uchun zarur hisoblangan axloqiy sifatlari bilan ifodalanadi. Professional pedagogik axloq ofitser shaxsining kasbiy takomillashuvi va axloqiy bilimlarni egallashi asosida hosil bo'ladi. Bilimdonlik, zukkolik va ziyolilik hozirgi zamon ofitseriga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Bilimdonlik madaniyatlikning bosh mezonidir. O'z mutaxassisligini chuqur bilgan, boshqa sohalardan ham yetarli tushunchaga ega bo'lgan, zamonaviy axborot oqimi ma'lumotlarini to'g'ri talqin qila oladigan pedagoggina o'z hamkasblari va tarbiyalanuvchilari ko'z o'ngida obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Bunda pedagogdan yaxshi xotira, ma'lum tizimga solingan bilimlar zahirasi, tajriba va sharoitga qarab yo'l tuta olish qobiliyati talab qilinadi.



Pedagogik madaniyatning asosini pedagogik mahorat tashkil qiladi³⁴.

Pedagogik mahorat ofitserning axloqiy va kasbiy qiyofasi tarzida namoyon bo'lib, uning kasbiy-pedagogik bilimi, psixologik-pedagogik tafakkuri, ko'nikma va malakalari hamda pedagogga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yig'indisidan iboratdir. O'zining pedagogik faoliyati davomida yuqori natijalarga erishish istagida bo'lgan kadr ta'lim-tarbiya ishlarini ilmiy izlanishlar bilan uyg'un ravishda olib bora olishi lozim. Izlanishlar, tadqiqot ishlari asosida fan rivojlanib boradi, yangiliklar yaratiladi, kashfiyotlar qilinadi.

Shunday ekan, malakali harbiy kadr o'z faoliyatini pedagogika fanining ilg'or yutuqlari asosida tashkil etishi, o'zi ham mutaxassis sifatida nafaqat fan rivojidan orqada qolmasligi, balki uning taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shib borishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik madaniyat haqida so'z yuritganda yuksak muomala madaniyati, so'zlashish odobi haqida gapirmaslik mumkin emas. Shuning uchun u nutqini o'stirish, muomala madaniyatini rivojlantirish, so'zlashish odobiga rioya qilish ustida tinmay mehnat qilishi lozim. So'z lug'atining boyligi, nutqining ravon va tozaligi, tinglovchi shaxsini hurmat qilishi, muomala qilish jarayonida axloqiylik qoidalariga va nizomlar talablariga qanchalik rioya qilishi ofitserning madaniy saviyasini ko'rsatuvchi omildir³⁵.

Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, inson doimiy izlanishda bo'lishi, o'z bilimi, ko'nikmasi va malakalarining bugungi darajasidan qoniqmaslik hissi bilan yashashi lozim. Pedagogning o'ziga nisbatan talabchanligi uning o'z ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borish, bilimlari doirasini, dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini oshirishga bo'lgan doimiy ehtiyojda ko'rinadi. Faqat shundagina hozirgi davr talabiga mos mutaxassis bo'lib yetishish mumkin. Izlanishdan to'xtagan odam – kechagi kun odami bo'lib qolishi mumkin. Ofitser pedagogik madaniyatining shakllanishi murakkab, uzoq vaqt talab etuvchi va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, bir qator omillar ta'siri ostida kechadi. Bu jarayonga jamiyatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, turmush tarzi, kundalik faoliyat o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ofitser pedagogik mahoratining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu pedagogik qobiliyatdir. Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi.

³⁴ Mavlonova R., Xoliqberdiyev K., To'rayeva O. Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent. « O'qituvchi». 2019-yil.

³⁵ Quدراتov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993-yil.



Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim³⁶. Pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishi uchun pedagogda qobiliyatning bir necha xil turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirmog'i lozim.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik qobiliyatlarning quyidagi turlari keltiriladi. Bular quyidagi terminlar.

1. Ilmiy bilish qobiliyati - pedagogning fanni tegishli sohalariga oid qobiliyatdir. Bunga harbiy pedagogning fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha chuqur va kengroq biladi, fanning, turmushning turli sohalaridagi yangiliklarni, kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi va tahlil qila oladi. Bu turdagi qobiliyat unga zamonaviy ilmiy fikr bilan yonma-yon yurishiga imkon beradi.

2. Tashkilotchilik qobiliyati - bo'linma pedagogik jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantira olish va o'z ishini to'g'ri tashkil eta olish (o'z ishini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qila bilish, konkret sharoitlarga moslasha olish va hokazolar)da namoyon bo'ladi. Bu turdagi qobiliyat pedagogga o'zining shaxsiy faoliyatini to'g'ri tashkil etishiga yordam beradi. Pedagog shaxsining intizomlilik, aniqlik, og'ir-bosiqlik, o'z vazifasiga mas'uliyatli munosabatda bo'lish kabi bir qator shaxsiy sifatlari uning tashkilotchilik qobiliyatining rivojlanganligidan dalolat beradi.

3. Didaktik qobiliyat – o'quv materialini tushuntira olish, ta'lim oluvchi ongiga qiziqarli, aniq tarzda yetkaza bilish, ilmiy izlanuvchanlik, fan va texnika yangiliklaridan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olish qobiliyati. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan pedagog o'z faoliyatiga ijodiy yondashadi, ta'lim oluvchida aqliy faollikni uyg'ota oladi.

4. Tushuntira olish qobiliyati o'quv materialini ta'lim oluvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, ularda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib bo'ysunuvchilarga yetkaza olishi darkor.

³⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>



5. Muomala (kommunikativ) qobiliyati pedagog-ofitserning bo'ysunuvchilar, boshliqlar, turli toifadagi harbiy xizmatchilar va ishchi-xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari, askarlarning ota-onalari, jamoatchilik vakillari bilan pedagogik va psixologik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnata olishida namoyon bo'ladi.

6. Kuzatuvchanlik qobiliyati ofitserning o'z bo'ysunuvchilari va atrofida qilgan ishlarining ichki dunyosiga kira olish, ruhiy holatini, ichki kechinmalarini, ulardagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni seza olishida namoyon bo'ladi.

7. Nutq qobiliyati (nutq texnikasi) pedagogning nutq yordamida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifoda eta olish qobiliyatidir.

8. Obro' ortira olish qobiliyati pedagog-ofitserning o'z bo'ysunuvchilari va xizmatdoshlarining ongiga, ruhiyatiga o'zining bilimi, amaliy faoliyati va xizmat burchiga mas'uliyatli munosabati, muomalasi, kundalik turmushdagi va oilasidagi ibratli xulqi orqali bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda o'zi haqida ijobiy fikr uyg'ota olishida namoyon bo'ladi.

9. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyatining rivojlanganligi pedagogga o'z faoliyatining, harakatlarining natijasini oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlab, muvaffaqiyatga erishishga ishonch hissini uyg'otishga yordam beradi. Bu qobiliyatning rivojlanishida pedagogik optimizm muhim ahamiyatga ega.

10. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati pedagogning diqqatning barcha xususiyatlarini, hajmi, kuchini idora qilish, safarbar eta olishidir.

11. Uqtira olish qobiliyati bilim olish, o'z xizmat vazifalarini bajarishga nisbatan mas'uliyatsiz, ongsiz munosabatda bo'layotgan bo'ysunuvchiga tarbiyachi ofitserning o'zining qat'iy so'zi va irodasi yordamida tushuntirish, ta'sir etish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarning yuqorida keltirib o'tilgan turlaridan hech biri alohida katta imkoniyatga ega bo'la olmaydi, chunki ular mantiqiy birlikda harbiy pedagog kadrning pedagogik mahoratining asosi bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun keng imkoniyatlar mavjud. Misol tariqasida, malaka oshirish kurslarida o'qish, ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etish, turli adabiyotlar ustida ishlash va boshqalar ana shunday imkoniyatlar jumlasiga kiradi. Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun pedagog ta'lim jarayonining xususiyatlarini, qonuniyatlarini chuqur bilishi, psixologik va pedagogik bilimlarni puxta egallashi lozim. Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, tajriba almashish, boy pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar o'tadigan mashg'ulotlarni kuzatish va o'zi ham ochiq mashg'ulotlar o'tib, ularning fikrini bilish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar



ko'rish kabi tadbirlar ham ofitserning pedagogik qobiliyatlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrning (ofitserning) pedagogik madaniyati murakkab tuzilishga va mazmunga ega tushuncha bo'lib, uni yaratish va takomillashtirish uzoq kechuvchi, uzluksiz, qator vosita va metodlar yordamida amalga oshiriluvchi jarayondir. Bu jarayonning samaradorligi esa pedagogning o'z ustida muntazam ishlashi, hohish-irodasi va yetuklikka intilishi bilan bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, har qanday pedagogning yuqori salohiyat egasi ekanligini namoyon qiluvchi vositalardan biri bu aqliy tarbiya hisoblanadi. Aqliy tarbiya o'z navbatida harbiy xizmatchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish;

harbiy xizmatchilarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;

mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish;

bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik jarayonlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va individual psixologik xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlash, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-oktabr. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>.


2. <https://milliycha.uz/moddiy-va-manaviy-madaniyat/>.

3. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik –Toshkent: 2008. – 37 bet.

4. V.Karimova. Pedagogika.Psixologiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2008 yil.

5. Egamberdieva, T., & Alimjonova, M. (2020). Pedagogical necessity of development of intercultural communication in students in the conditions





globalisation of education. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 277-283.

6. R. Mavlonova, D.Abduraximova. "Pedagogik mahorat". Toshkent 2009. 25-bet.

7. Mavlonova R., Xoliqberdiyev K., To'rayeva O. Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent. « O'qituvchi». 2019-yil.

8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T ., 1993-yil.

9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>.

